



KO'HNA XAROBALAR SARI YO'L – TUPROQQAL'A TARIXIDAN

Umida Zaripboyeva

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10580278>

ARTICLE INFO

Received: 22th January 2024

Accepted: 28th January 2024

Online: 29th January 2024

KEY WORDS

Xorazm, Tuproqqal'a, Ellikqal'a, To'rtko'l, Hazorasp, Bo'ston, Abu Rayhon Beruniy, Humbuztepa, "Qora tanli jangchilar zali", "Ming qal'a o'lkasi", Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiyasi, S.P.Tolstov, poytaxt.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Xorazmning qadimgi poytaxtlaridan biri bo'lgan va hozirga qadar saqlanib qolgan, yirik arxeologik inshoot, Xorazmning qadimgi davri haqida batafsil ma'lumot beruvchi Tuproqqal'a qal'asi va uning tarixi haqida ma'lumot.

O'tmishni bilmay turib, hozirgi zamonning chinakam ma'nosini va kelajak davrning maqsadlarini tushunish mumkin emas.

A.M. Gorkiy.

Kirish: Qizilqum cho'lining cheksiz qumlari orasida ko'plab sir va sirlarga to'la Xorazm vohasi yoyilgan. Arablar istilosi davri manbalarida Xorazm "Ming qal'a o'lkasi" deb atalgan. Bu hududda arxeologlar bir vaqtlar qudratli qal'alar va qirolluk saroylari bo'lgan ko'plab qadimiy aholi punktlarini topganlar. Suvsiz dashtlarning bepoyon kengliklarida yuzlab qal'alar qad ko'tarib, ulkan butlar singari Qadimgi Xorazm sirlarini saqlaydi. Xorazm arxeologiya va etnologiya ilmiy safari xodimlarining 1937-yildan boshlab, Xorazmda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari Xorazmning ko'p qirrali tarixini ochib berdi. Xorazm qal'alarini o'rganish jarayonida ular tarixiga oid ko'plab sirlar ma'lum bo'ldi.

Ma'lumki, tarix fani afsona va rivoyatlarni inkor qilmaydi, balki ular zaminida yashirinib yotgan haqiqatlarini aniqlash uchun arxeologiya, etnografiya, fanlaridan samarali foydalanadi. 12 ming qal'a qo'rg'onli Xorazm vohasiga doir afsona va rivoyatlar ko'plab uchraydi. Abu Rayhon Beruniyning xabar berishicha, "Xorazm madaniyati – qadimgi madaniyatlardan bo'lib, uning ildizlari eramizdan avvalgi 1292-yildan boshlanadi". Alloma o'lka tarixini bayon etar ekan, "Uning taqdiri Jayhun fe'l- atvoriga bog'liq edi", deb ko'rsatgan. Qadimgi Xorazm davlati mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha eng qudratli davlatlardan biri bo'lgan. Beruniy ma'lumotiga ko'ra, shu davrda Xorazm hududida 300 dan ortiq shaharlar bo'lgan.¹ Lekin

¹ Беруний Абу Райхон, Қадимги ҳалқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: 1968. Б. 231.



2000-yillarda Oqchaxonqal'ada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimgi Xorazmning poytaxti Oqchaxonqal'a yodgorligi ekanligi isbotlandi. Mazkur yodgorlik o'zining qurilish uslubi, saroy bezaklari, topilmalari va shohlarning devoriy suratlari bilan alohida ajralib turadi.²

S.P.Tolstov boshliq ekspeditsiya a'zolari bu yerlarda ko'p yillar davomida ekspiditsiya ishlari olib borildi. Hozirgi Bo'ston, Ellikqal'a, To'rtko'l, Beruniy tumanlari janubiy Xorazmdagi Hazorasp, Xumbuztepa, Sadvar Doyaxotin, Tuproqqal'alar fikrimizni dalillaydi. Tabiiy ofat o'zaro bosqinchilik urushlariga qaramasdan ularning ba'zilar bizga qadar saqlanib qolgan. Ana shunday dastlabki yirik qal'alardan biri Tuproqqal'a hisoblanadi. Tuproqqal'a yer qal'asi degan ma'noni bildiradi.

Tuproqqal'a Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumani hududida joylashgan. Tuproqqal'a, milodimizdan avvalgi III – II asrlarda qurilgan bo'lib, milodimizning IV – V asrlarida qayta tiklangan obidadir. Bu qal'a-shahar miloddan avvalgi III, milodiy IV asr boshlarida Xorazm shohlarining qarorgohi bo'lgan. 1938-yildan boshlab, sobiq SSSR Fanlar Akademiyasining Xorazm arxeologiya va etnografiya ilmiy safari xodimlari ilmiy tekshirish ishlari olib borib, shahar tarixi bilan bog'liq masalalarni to hozirgacha o'rganmoqda.

Tuproqqal'a tuzilishi to'g'ri burchakli bo'lib, 17,5 gektar maydonni egallagan. Qal'ada 2000 – 2500 kishi istiqomat qilgan. Tuproqqal'aning shimoliy-g'arbiy burchagidagi shoh saroy devoridagi III asrga doir rasm va haykallar alohida ahamiyatga ega. Devorga ishlangan rasmlar turli xil mavzudaligi va uslubi bilan kishi diqqatini o'ziga jalb qiladi. Tuproqqal'adan arxeologlar tomonidan ko'plab xonalar qazib olingan. Xonalarning ko'pchiligi naqshinkor qilib bezatilgan. Xona to'rtta ustunli, yassi tomonli ulkan zal bo'lgan. Zalda esa tantanali marosimlar o'tkazilgan³.

Qadimiy kanal tizimi bu yerga Okus* daryosining bugungi kunda qurib qolgan tarmog'idan suv olib kelgan. Ishonish qiyin, ammo Tuproqqal'aning ko'plab binolari qurilish materiallarining sifatsizligiga qaramay, bugungi kungacha saqlanib qolgan. Quruvchilar katta xom g'isht, gil, mayda toshlar va daryo qumidan foydalanganlar. Ularning mehnati natijasida aholi barcha noqulay ob-havo sharoitlariga bardosh bera oladigan issiq va quruq uylarga ega bo'lgan.

Qal'a Xorazm podshohlarining qarorgohi bo'lib xizmat qilgan. U shimoldan janubga cho'zilgan to'rtburchak shaklida qurilgan va o'lchamlari 500x350 metr. Devorlarning balandligi 14 metrga yetgan. Inshoot kamonchilar uchun galereyalari bo'lgan, to'g'ri devorlardan, qanotlari bo'ylab, teng oraliqda joylashgan to'g'ri burchakli minoralardan va shimoli-sharqiy burchakdagi kattaroq minoradan iborat. Devorlarning ichida ikki qavatli mudofaa galereyalari bor. Pastki galereya askarlarning yashirin harakati va dam olishi uchun xizmat qilgan, yuqori qismi esa jangovar edi. Qo'shimcha to'siq sifatida shaharni har tomondan o'rab turgan va devorlardan 15 metr masofada joylashgan qal'a devorlari oldida xandaq qurilgan. Uning kengligi 16 metr va chuqurligi 3 metr edi. Qal'aga yagona kirish eshigi janubiy devorning

²Ходжаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.К. Раскопки на Акшаханкале // Археологические исследования в Узбекистане 2000 г. –Самарканд, 2001. –С. 175

³ Қиличев Т. Кўҳна қальлар диёри. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б. 34-36.

* Amudaryoning qadimgi nomi.



o'rtasida qurilgan. Kengligi taxminan 9 metr bo'lgan markaziy ko'cha shaharning butun uzun o'qi bo'ylab o'tgan, yon ko'chalar va yo'laklar esa asosiy ko'chaning ikki tomonida turar-joy massivlarini tashkil qilgan. Ularning ba'zilari ustaxonalar va ishlab chiqarish maydonlari sifatida ishlatilgan. Bir joy ma'bud majmuasi uchun ajratilgan bo'lib, bino ichidagi va uning atrofidagi kul miqdoriga ko'ra, bu olov ma'budi bo'lgan.

Saroyning ko'p xonalari devor rasmlari va loydan yasalgan haykallar bilan bezatilgan. Ulkan markaz oldidagi zal – 280 kv. metr maydonga ega “Qirollar zali” o'zining bezaklari bilan alohida ajralib turardi. Yorqin bo'yalgan devorlar bo'ylab Xorazm hukmdorlarining har biri tabiiy o'lchamidan ikki baravar katta bo'lgan 23 ta loydan yasalgan haykalchalar turgan. Afsuski, bu haykallar faqat parcha-parcha holda saqlanib qolgan. Bu haykallarning aynan podshohlar timsoli ekanligi tangalardagi tasvirlardan ma'lum bo'lgan ikkita haykaltarosh toj topilmalaridan dalolat beradi.

“Qora tanli jangchilar zali”ning bezaklari ham qiziqarli va boy. Taxminan 60 kvadrat metrlik bu keng xona ham loydan yasalgan haykallar bilan bezatilgan. Joylashtirish va tartibga solish saroy uchun odatiy turar-joy binolarining tartibi va tartibini butunlay takrorladi. Devorlar bo'yidagi bo'shliqlarda shohlarning loydan yasalgan yirik haykallari va ular orasidagi bo'shliqlarda maxsus stendlarda qo'llarida qurol-yarog' bilan jangchilarning siymolari bor edi. Saroyning yana bir old xonasi arxeologlar tomonidan “Raqs maskalari zali” deb nomlangan. Ushbu zalning bezaklari nafaqat qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan qadimgi yunon sharob va o'yin-kulgi xudosi Dionisga sig'inishga bag'ishlangan. Zal devorlarini bezab turgan barelyeflarda Bakx raqslari tasvirlangan. Kichikroq xonalar – ehtimol turar-joy – ko'p rangli devor rasmlari bilan bezatilgan.

Tuproqqal'a nafaqat o'zining g'aroyib me'morchiligi, balki qadimiy Xorazm yozuvining noyob topilmalari bilan ham mashhur. Qora siyoh bilan yog'och lavhalar va charm varaqlarga yozilgan jami 116 ta hujjat topilgan. Topilgan uchta hujjatda 207, 231 va 232-sonlarga to'g'ri keladigan aniq sanalar mavjud.

Afsuski, Tuproqqal'aning aksariyat moddiy topilmalari bizning davrimizga qadar saqlanib qolmagan. Topilgan eng qimmatli topilmalarning ko'pchiligi – haykallar va freskalar yomg'ir va haroratning o'zgarishi natijasida qattiq shikastlangan, chunki ularning aksariyati ulug'vor inshootlarning o'zlari kabi bir xil materialdan – oddiy loydan qilingan.

Misr piramidalari va Bobil saroylaridan farqli o'laroq, qadimgi Xorazm qal'alari toshdan foydalanmasdan qurilgan, chunki uning atrofida ohaktosh va granit bo'lmagan, to'qay chakalaklarining yog'ochlari yog'och va taxta ishlab chiqarish uchun mos emas edi. Ammo xorazmliklar, aftidan, loydan va loydan juda bardoshli inshootlar qurishga imkon beradigan noyob qurilish sirlariga ega edilar⁴.

Bu qal'ning e'tiborga molik muhim jihati shundaki, Tuproqqal'aliklarning yurish-turishlari, kiyimlari, uylari ko'p jihatdan hozirgi xorazmliklarga o'xshab ketadi. 1948 – 1949-yillarda uyushtirilgan ekspeditsiya a'zolari yuqori qavatdagi xonalarning biridan qadimgi xorazmliklarning teri va yogo'chga yozilgan arxivini topganlar. Undan hammasi bo'lib 140 ta hujjat chiqqan. Shundan 122 tasi teriga yozilgan bo'lib, ularning ko'pi chirib ketgan. Teriga yozilgan hujjatlarning 18 tasi, taxtaga yozilganlarning esa 18 tasi yaxshi saqlangan. Bu

⁴ <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/khorezm>



hujjatlarning asosiy qismi ma'muriy-xo'jalik masalalariga doir bo'lib, oromiy tilidagi alifbeda yozilgan. Hujjatlarning tili A.A.Freyman va boshqa tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan Xorazmning XIII – XIV asrlardagi forsiy tiliga o'xshaydi. Ayrim hujjatlarning yili ham ko'rsatilgan. Topilgan ayrim narsalar ichida bir yarim hissa kattaroq qilib ishlangan, erkak kishi boshi tasvirlangan haykal alohida ahamiyatga ega. Chunki, bu Xorazmda ganchdan ishlangan birinchi haykaldir. Topilgan narsalar ichida xo'jalikka doir bo'lgan Xorazmda birinchi marta uchragan o'roq va temir sovut tangachalari muhim o'rin tutadi.

Siyovushlar portretli ko'rgazmasining kashf qilinishi Tuproqqal'adagi saroy mahalliy hokimlarning emas, balki butun Xorazm podsholarining saroylari bo'lganligidan, Tuproqqal'aning o'zi esa Beruniyning yozishicha, qarorgoh yangi eraning 305-yilida Kat shahriga ko'chirgunga qadar bu podsholarning qarorgohi bo'lganligidan dalolat beradi. Qadimgi Xorazm yodgorliklari ichida kattaligi jihatdan bu saroyga teng keladigani yo'q. Tuproqqal'a me'morchiligining ayrim jihatlariga e'tibor bermaslikning iloji yo'q. Bu saroy kattaligi va ulug'vorligiga qaramasdan, qurilish va texnikaviy jihatdan nihoyatda qoniqarsizdir. Tuproqqal'adagi saroy g'ishtlari pala-partish terilishi bilan Xorazmning ilk davrdagi me'morchilik obidalaridan ancha farq qiladi. Bu nuqson qal'ada odamlar yashagan davrdayoq namoyon bo'lgan. O'sha vaqtda devorlar qulab ketmasligi uchun tirgagich devorlar qurishgan, bazida esa qulab tushmasligi uchun butun boshli imoratlar qurishga to'g'ri kelgan. Bundan kelib chiqadiki saroy qisqa muddatda qurilgan. Kushonlardan mustaqil bo'lgan Xorazm diyori o'z qudratini namoyon qilish maqsadida muhtasham va ulug'vor saroy qurilishni rejalashtirgan.

Tuproqqal'adan, markaziy maydonchanning shimoli-g'arbiy burchagidagi gumbazning yuqorida tilga olingan, bosib qolgan joy yaqinidan, XII – XIII asrlarga oid ikkita nihoyatda bezakdor ko'zaning katta-katta bo'laklari topilgan. 1945-yil o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, XII asrda ulug' Xorazmshohlar hukmronlik qilgan davrdaham, Tuproqqal'a saroy qasrida odamlar yashagan, biroq bu odamlar kam edi va ular buzilib bo'lgan binolarni egallaganlar. Qadimgi madaniy qatlam esa allaqachon qum va oqib tushgan loyning qalin qatlami ostida qolib ketgan edi⁵.

Tuproqqal'adan topilgan topilmalar qadimgi Xorazm o'ziga xos san'at va arxitekturaga ega bo'lganligi, mustaqil taraqqiy qilganligi hamda qo'shni mamlakatlar – Parfiya, Baqtrya, Hindiston, Yaqin Sharq va Qora dengizning shimolidagi davlatlar bilan yaqin aloqada bo'lganligini ko'rsatadi.

Butun Xorazmda shohlarning tengi yo'q dabdabali rezidentsiyasi bo'lgan Tuproqqal'a saroyi noma'lum sabablarga ko'ra IV asrga kelib tashlandiq joyga aylanib, bo'shab qoladi. Shahardagi hayot esa VI asrgacha davom etgan⁶.

Xulosa qilib aytganda Xorazm vohasi o'zining muhtasham tarixiy qal'lari, boy qadimiy madaniy inshootlari bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan. Xorazmning ko'p sonli inshootlaridan hozirda eng yaxshi holatda yarmi o'rganilgan. Xorazm tarixi hali to'liq ochilmagan, u sirlar, taxminlar, rivoyatlar, osori-atiqalar, rivoyat va e'tiqodlar bilan qoplangan. Bularning barchasi bu hududga alohida qiziqish uyg'otadi. Ular ochiq osmon ostidagi tirik muzey, qiziquvchan tadqiqotchini o'ziga tortadigan ertak. Bu qal'alarda ko'plab sir va sinoatlar yashiringan. Xalqimizning qadimiy va navqiron tarixini bir-biriga tutashtirib

⁵ Толстов С. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. – Т.: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 205-207.

⁶ Жабборов И. Кўҳна харобалар сири. – Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, 1961. – Б. 69-70.



turuvchi ko'hna qal'alar diyori obidalari har qancha ardoqlansa, kelajak avlodimizga yetkazish uchun avaylab saqlansa, ko'pgina qurilish namunalari, devor me'morchilik san'at asralari, sopol mahsulotlari dunyo madaniyati xazinasidan munosib o'rin olib turadi.

References:

1. Беруний Абу Райхон, Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: 1968. Б. 231.
2. Ходжаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.К. Раскопки на Акшаханкале // Археологические исследования в Узбекистане 2000 г. –Самарканд, 2001. –С. 175
3. Қиличев Т. Кўҳна қалълар диёри. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б. 34-36.
4. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/khorezm>
5. Толстов С. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. – Т.: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 205-207.
6. Жабборов И. Кўҳна харобалар сири. – Тошкент: Узбекистон ССР давлат нашриёти, 1961. – Б. 69-70.